

UDK: 339.5 (575.1)

O‘ZBEKISTONDA TIBBIY XIZMATLAR RIVOJLANISH JARAYONLARINING  
STATISTIK TAHLILI

Abduvalieva Yorqinoy Rahmonalievna,  
Kadrlar malakasini oshirish va statistik  
tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti (PhD)  
E-mail: [y.r.abduvaliyeva2021@mail.ru](mailto:y.r.abduvaliyeva2021@mail.ru)

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada sog‘liqni saqlash statistikasining nazariy va amaliy jihatlari, xorijiy mamlakatlarda tibbiy statistik ma‘lumotlarni shakllantirish uslublari va ulardan mamlakatimizda foydalanish bo‘yicha atroflicha ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Mamlakatimizda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari va unda sog‘liqni saqlash tizimida ko‘rsatilayotgan xizmatlarni hisobini yuritish, uning tamoyillari, bosqichlari, moliyalashtirish va xarajatlarini tasniflanishi muammolari, sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish konsepsiyasi, asosiy yo‘nalishlari va eng muhim mexanizmlarini takomillashtirish tamoyillari, aholi kasallanishiga doir ma‘lumotlarga statistik ishlov berish uchun jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST)ning ma‘lumotlarning vaqt va makonda solishtirilishi va qiyoslanishini ta‘minlaydigan kasalliklar va sog‘liq bilan bog‘liq muammolarning Xalqaro statistik tasnifi qo‘llanilib, ularni statistik tahlil qilish uslubiyotini yanada takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** milliy hisoblar tizimi, makroiqtisodiyot, YaIM, xizmatlar, tibbiyot statistikasi, sog‘liqni saqlash milliy hisoblari, xalqaro statistik tasniflagich, jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, sog‘liqni saqlash tashkilotlarining statistik hisobotlari, retrospektiv tadqiqotlar, aholi kasallanishiga doir statistik ma‘lumotlar.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье представлена подробная информация о теоретических и практических аспектах статистики здравоохранения, методах формирования медицинской статистики в зарубежных странах и их использовании в нашей стране. Специфика развития макроэкономических показателей в нашей стране и проблемы учета предоставляемых в ней услуг в системе здравоохранения, классификация

ее принципов, этапов, финансирования и затрат, концепция реформы здравоохранения, принципы совершенствования основных направлений и важнейшие механизмы, для статистической обработки данных о болезнях населения Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ) использовала Международную статистическую классификацию болезней и проблем со здоровьем, обеспечивающую сопоставление данных во времени и пространстве, описывающую особенности дальнейшего совершенствования методологии их статистического анализа.

**Ключевые слова:** национальная система счетов, макроэкономика, ВВП, услуги, медицинская статистика, национальные счета здравоохранения, международный статистический классификатор, всемирная организация здравоохранения, статистические отчеты организаций здравоохранения, ретроспективные исследования, статистические данные о заболеваемости населения.

**ABSTRACT.** This article provides detailed information about the theoretical and practical aspects of health statistics, methods of forming medical statistics in foreign countries and their use in our country. The specifics of the development of macroeconomic indicators in our country and the problems of accounting for the services provided in it in the health system, the classification of its principles, stages, financing and costs, the concept of health reform, the principles of improving the main directions and the most important mechanisms, for statistical processing of data on diseases of the population, the World Health Organization (WHO) used the International Statistical Classification of Diseases and Problems with health, providing a comparison of data in time and space, describing the features of further improvement of the methodology of their statistical analysis

**Key words:** national system of accounts, macroeconomics, GDP, services, medical statistics, national health accounts, international statistical classifier, world health organization, statistical reports of health organizations, retrospective studies, statistics on the morbidity of the population.

## KIRISH

Sog'liqni saqlash sohasi aholi salomatligini mustahkamlash, turmush sifatini oshirish va barqaror demografik rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli milliy manfaatlarni ta'minlashga xizmat qiladi.

Sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdan maqsad tibbiy yordamning davlat tomonidan kafolatlangan hajm doirasida aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatilishini tashkil etish va sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlari himoya qilinishini ta'minlashdan

iborat. Aholi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashdan maqsad umr ko'rishni uzaytirish, o'lim va nogironlikni kamaytirish, aholi sonini o'stirishdan iborat [1].

Butun dunyoda aholi sog'lig'ini yaxshilashga yo'naltirilgan sog'liqni saqlash tizimi quvvatlari rivojlantirilib borilayotgan bo'lsa ham sezilarli qo'shimcha xarajatlarga borib taqaladi. Ayni shu sababdan ham sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish to'g'risidagi yanada aniqroq ma'lumotlarni olish sog'liqni saqlash siyosatini ishlab chiqishning muhim elementi hisoblanadi. Sog'liqni saqlash milliy hisoblari (SSMH) sog'liqni saqlash milliy xarajatlarining turli aspektlari ko'rsatilgan standart jadvallar to'plami hisoblanadi. SSMH mamlakatda sog'liqni saqlashning barcha xarajatlarini, jumladan davlat, xususiy va donorlik xarajatlarini o'z ichiga oladi. SSMH – sog'liqni saqlash tizimida davlat mablag'larini, nodavlat mablag'larini va tashqi dunyo mablag'larini o'z ichiga oluvchi moliyaviy oqimlarni kuzatib borish uchun ma'lumotlarni yig'ish va tasniflashni aniqlash bo'yicha dunyo miqyosidagi standartdir. SSMH deganda mamlakatning sog'liqni saqlash tizimidagi moliyaviy oqimlarini doimiy har tomonlama izchillik bilan monitoringi tushuniladi va sog'liqni saqlash sohasida samarali siyosatni yuritish to'g'risidagi haqqoniy ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi maxsus ishlab chiqilgan vosita hisoblanadi. Bu hisoblar sog'liqni saqlash tizimida mazkur siyosatni ishlab chiqish, amalga oshirish va tartibga solib turishda hamda o'tkaziladigan tadbirlarni monitoringini yuritish va baholashda yordam beradi. SSMH aholi sog'lig'ini saqlash zaruratining barcha darajalarida – davlat darajasidan tortib, mamlakat fuqarosi darajasigacha moliyaviy mablag'larning shakllanishi va ulardan foydalanishning to'liq va haqiqiy tahlilini o'tkazishni ta'minlaydi.

Tibbiyot statistikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- aholi salomatligini o'rganish;
- aholining soni, tarkibi, tabiiy harakati (tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish), jismoniy rivojlanishi va aholi orasida har xil kasalliklarni tarqaganligi va ularning kechishi, o'rtacha umr va hakazolar;
- umumiy kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarini yoki ayrim kasalliklar va o'lim sabablarini aholining ayrim guruhlari orasida ularning turmush tarzi, tashqi muhit, ijtimoiy – iqtisodiy, tarixiy shart sharoitlar bilan bog'lab o'rganish va o'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda aholi salomatligini yanada yaxshilash haqida aniq ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish;
- sog'liqni saqlashni to'g'ri rejalashtirish, sanitariya-epidemiologiya va davolash-profilaktika muassasalarining ishini to'g'ri tashkil etish uchun ularning faoliyatini, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatning sifati va samarasini o'rganish, tibbiyot muassasalarining turi, soni, ularda ishlovchi xodimlarning soni, muqim shifoxonalardagi o'rinlar soni haqida ma'lumotlar yig'ish va ularni har tomonlama chuqur tahlil qilish;

- tajribada qo'llanilayotgan davolash va profilaktika ishlarida baho berish, ularni samarasini o'rganish;

- klinika va laboratoriya sharoitida ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalashtirish, ularni tashkil etish va o'tkazish, olingan natijalar aniqligini baholash, sog'lom va kasal odam organizmidagi har xil xodisa va jarayonlarning qonuniyatlarini aniqlash, yangi davolash va profilaktika usullarining samaradorligiga baho berish.

AQShda 1964-yildan boshlab har yili sog'liqni saqlashga qilingan yillik xarajatlar hajmi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar e'lon qilib boriladi [2].

Respublikamizning mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda erishgan yutuqlar qatorida sog'liqni saqlash tizimi alohida o'rin egallaydi. Hozirgi kunda yurtimizda sog'liqni saqlash tizimida keng islohotlar olib borish bo'yicha me'yoriy-huquqiy asoslar yaratilib borilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [3] ham sohani rivojlantirish uchun xorijiy investisiyalarni keng jalb qilish vazifalari belgilab berilgan. Xususan, "Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 mlrd. AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish" doirasida sog'likni saqlash sohasida DXSh qonunchiligi asosida jami summasi 275 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan DXSh loyihalarini amalga oshirish belgilab berilgan.

Shu bilan birga ushbu strategiyada Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug'urtalash amaliyotini joriy qilish deb nomlangan 56-maqсадida Markazlashgan laboratoriya, sterilizatsiya va yuqori texnologik tekshiruvlar tizimini tashkil etish, hamda aholini tibbiy sug'urtalash tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish vazifalari belgilab berilgan. Strategiyaning "Hududlarda birlamchi tibbiy xizmatni «bir qadam» tamoyili asosida tashkil etish" deb nomlangan 64-maqсад mazmunida esa Hududlardagi mavjud ehtiyoj, aholining takliflarini inobatga olgan holda 2022-2023-yillarda 61 ta oilaviy poliklinikalar, 215 ta oilaviy shifokor punktlarini tashkil etish, aholiga sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida birlamchi tibbiy xizmatni mahallalarda tashkil etish uchun zarur choralarni ko'rish, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda aholiga masofadan turib tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari belgilab berilgan. Yuqoridagi vazifalarni samarali amalga oshirish borasida sohasini statistik tahlil qilish va kelgusi davrlar uchun zaruriy prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda soha bo'yicha statistik axborotlar bazasani shakllantirish va uni xalqaro stanlartlarga moslashtirish zaruriyati yuzaga keladi.

Shuningdek, yurtimizda sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish borasida olib borilayotgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar



natijasida, mamlakatimizda iqtisodiyotning turizm sohasida yana bir yangi yo'nalish, tibbiyot turizmini shakllanishiga olib kelmoqda. U esa mamlakatimizda tibbiyot sohasini yanada rivojlanib borayotganligini ko'rsatadi. Ushbu fikrlarimizning amaliy namunasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonida "Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, aholi salomatligini saqlash va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish dasturini 2022-2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni, shuningdek, sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirishning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan strategiyasini amalga oshirish" kabi vazifalar belgilab berilgan [4].

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash milliy hisoblari asosida va ularni analitik qayta ishlash natijasida shakllanadigan axborot, tibbiy yordam tashkilotlarining barcha boshqaruv bo'g'inlari bo'yicha va uning har bir ko'rinishi bo'yicha ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun juda muhim hisoblanadi. Endi Sog'liqni saqlash milliy hisoblari tuzilmasini olib qaraylik. Sog'liqni saqlash milliy hisoblariini tashkil etishning asosiy vazifasi shundaki, ishlab chiqilgan jadvallar xalqaro darajada qiyoslanishi lozim.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash milliy hisoblari jadvallari quyidagi parametrlardan iborat: moliyalashtirish manbalari; moliyalashtiruvchi tashkilotlar; ta'minlovchilar (dorixonalar, poliklinikalar, stasionarlar va boshqalar); funksiyalar (xizmat ko'rsatish turlari: davolash, profilaktika, tibbiy tovarlar va boshqalar).

Xalqaro darajada olganda, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti(IHRT)ning sog'liqni saqlash hisoblari tizimi (SSHT) 1993-yildagi milliy hisoblar tizimi (MHT) bilan uslubiy jihatdan muvofiqlashtirilgan, konsepsiyalar va hisobga olish qoidalariga asoslanadi. SSHT mazkur hisoblar ijtimoiy-iqtisodiy statistikaning boshqa ma'lumotlari bilan aloqani ta'minlaydi[5].

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tibbiyot sohasida statistik tadqiqotlar olib borgan olimlardan N.V.Potemkina tibbiy statistika mehnat funksiyasining yeleменти sifatida amaliy sog'liqni saqlashda eng ommabop va talabga ega bo'lib qolmoqda, shuning uchun zamonaviy darajada tibbiy statistika bo'yicha mutaxassislarini, shu jumladan tibbiyot tashkilotlarida ishlaydigan tibbiy statistiklarni tayyorlash zarurati dolzarbligini aytib o'tgan [6].

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan K.V. Sobochenko sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirish sog'liqni saqlash sohasidagi fuqarolar, shifokorlar va menejerlar o'rtasida samarali va tezkor hamkorlikni o'rnatish uchun asosiy texnologik yondashuv deb hisoblagan. U tibbiyot sohasida yagona axborot bazasini

yaratish, amalga oshirish va rivojlantirish sog'liqni saqlash sohasida birlamchi tibbiy yordamdan boshlab va uning yuqori texnologiyali komponentlari bilan tugaydigan jarayonlarni birlashtirishga olib kelishi kerak ekanligini bildirib o'tgan [7].

A.V. Gordeeva palliativ yordam, tibbiy rehabilitasiya, yuqumli kasalliklar xizmati ishi, birlamchi tibbiy yordam, hududiy rejalashtirish va boshqa shu kabi sog'liqni saqlash tizimidagi tor doiradagi sohalar tobora rivojlanib borayotgan bugungi kunda rivojlanishning strategik yo'nalishlari va tezkor tuzatishlarini aniqlash uchun qisqa vaqt ichida axborot va ko'rsatkichlarni o'z vaqtida shakllantirish zarur ekanligini aytib o'tgan [8].

N.N. Tezina tibbiy axborot tizimlari (MIS – Medical Information Systems) tibbiy ma'lumotlarni hisobga olish va saqlashni soddalashtirish va ushbu ma'lumotlar bo'yicha moslashuvchan analitik va statistik hisobotlarni yaratish imkoniyatini yaratish uchun yaratilgan ekanligini ta'kidlab, tibbiyotda axborot texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirish sog'liqni saqlashda zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish bilan bog'liqligini ko'rsatib bergan [9].

N.N. Tezina olib borgan tadqiqotlari davomida erishgan natijalari sifatida sog'liqni saqlash milliy xarajatlarini baholashda SSMHni mamlakatning geografik chegaralari emas, balki o'z mamlakatining rezidentlari va fuqarolari bilan bog'langan sog'liqni saqlash tizimidagi tranzaksiyalar hisobga olish zarurligini aniqlagan [10]. U Jahon banki ma'lumotlariga tayanib, SSMH vaqtincha xorijda bo'lgan rezidentlar va fuqarolarga tibbiy yordam xarajatlarini ham o'z ichiga oladi va mamlakat ichida bo'lgan chet el fuqarolariga ko'rsatilgan tibbiy yordam xarajatlarini o'z hisobidan chiqarilishini hamda qabul qiluvchi mamlakatning rezidentlari uchun xalqaro tashkilotlarning tibbiy yordamga, tibbiy xizmat va tovarlarga belgilangan xarajatlari ham sog'liqni saqlashning milliy xarajatlari hisoblanishini misol sifatida keltrib o'tgan [11].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining tibbiyot sohasini statistik tahlil qilish va statistik ma'lumotlarni xalqaro stanlartlarga moslashtirishga bag'ishlangan ilmiy asarlari qiyosiy o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlari tahlilida statistik ma'lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, tanlanma kuzatuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va quyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Tibbiy statistika butun bir fan bo'lib, u holda tibbiyotni rivojlantirish mumkin emas, chunki statistik ma'lumotlar bashorat qilish va hal qilishning

yangi usullari va uslublarni izlash kerak bo'lgan muammoli sohalarni ko'rsatish imkonini beradi. Ma'lumki, hozirgi kunda sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadbirlar doirasida tegishli tibbiyot muassasalarida bir qator axborot tizimlari, jumladan, "Elektron poliklinika", "TMEK", "Narkologik dispanser", "Psixologik dispanser", "Bemor", "Emlash", "Xatlov", "Tug'ilish va o'lim", "PSR-test tizimi" va boshqalar ishga tushirilgan. Ammo, 2025-yilgacha bo'lgan muddatda ishga tushirilishi rejalashtirilgan "Elektron order", "Telemeditsina", "Tibbiy jihozlar hisobi", "Kadr resurslari", "Onlayn o'qitish", "Tibbiy sug'urta" kabi tizimlarni hamda mobil ilovalarni hamda 2022–2025 yillarda yagona elektron tibbiy karta, elektron shifoxona, elektron resept, laboratoriya va radiologiya hamda sun'iy intellektga asoslangan tizimlarni amaliyotga joriy etishni jadallashtirish zarur hisoblanadi. Statistik tadqiqotlar aholi salomatligi darajasini, kasallanishning ko'tarilish va pasayish davrlarini baholash, sog'lom odamlar va nogironlarning nisbatlarini, sog'liqni saqlash samaradorligini, yangi kasalliklarning chastotasini va boshqalarni aniqlash imkonini beradi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan sog'liqni saqlashga yo'naltiriladigan mablag'lar bo'yicha tavsiya qilingan ko'rsatkich YaIMning 5 foizni tashkil etadi. Bu borada xarajatlar YaIMning uch foiziga teng bo'lganda tanglik holati boshlanadi, ya'ni sog'liqni saqlashga xarajatlar mazkur ko'rsatkichdan past bo'lganda sog'liqni saqlash tizimi me'yorida faoliyat ko'rsata olmaydigan holatga tushadi.

Tibbiyotga doir statistik ma'lumotlarni shakllantirishda qanday ma'lumotlarni tanlash, ularni qanday yig'ish va baholashni hal etadigan mamlakatlar quyidagi omillarga tayanishlari darkor:

Shaffoflik. Xarajatlar bo'yicha ma'lumotlar manbaini, foydalaniladigan klassifikasiya va tavsif turlarini, shuningdek har qanday tuzatish yoki hisoblashlarni aniq hujjatlashtirish zarur. Odatda, bu har bir mamlakatda SSMH baholash bo'yicha qo'llanma yozilishini talab etadi.

Siyosiy ahamiyati. Sog'liqni saqlash xarajatlarini baholash shunday tarzda tuzilishi kerakki, mamlakatning sog'liqni saqlash siyosatini rivojlantirish uchun ahamiyatga ega bo'lgan barcha hisob-kitob kafolatlanishi kerak. Mavjud xalqaro standartlar va amaliyot bilan moslik. Sog'liqni saqlash xarajatlarini baholash tizimi xalqaro prinsiplar va standartlar bilan mos kelishi darkor, misol uchun milliy hisoblar tizimi bilan davlat moliya statistikasi [12, 13].

Standartlardan barcha og'ishlar qat'iy hujjatlashtirilishi darkor. O'lchashlarning amalga oshirilishi. Sog'liqni saqlash xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va to'g'riligini tasdiqlash qisqa vaqt davomida (bir yildan kam) va arzon ravishda amalga oshirilishi zarur.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish davlat ijtimoiy siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va ularda sog'liqni saqlashga xarajatlar kamida YaIMning 8-10 foizini tashkil etadi. Faqat AQSh va Marshal orollaridagina mazkur xarajatlar YaIMning 15 foizidan ortiqni tashkil etadi. Shveysariya, Germaniya, Fransiya, Islandiya Serbiya va Portugaliyada tibbiy sohaga yo'naltiriladigan mablag'lar YaIMning 10-13 foizini tashkil etadi. Dunyoda sog'liqni saqlashga umumlashgan byudjet xarajatlarning o'rtacha solishtirma og'irligi ko'rsatkichi YaIMning 6,3 foizini, Yevropada bu ko'rsatkich 6,7 foizni tashkil etadi. MDH statistika qo'mitasining ma'lumotlari bo'yicha Hamdo'stlik mamlakatlarida bu ko'rsatkich quyidagicha bo'lgan: Belarus va Moldaviyada 5%, Rossiya va Ukrainada 4%, Qirg'izistonda 3%, Qozog'istonda 2% va Armaniston hamda Ozarbayjonda 1% [14].

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sish sur'ati mamlakatda umumiy xizmatlar hajmining ortishida hududlarning ulushi va jami xizmat ko'rsatishning hududlardagi ko'rsatkichlarini aniqlab beradi (1-jadval).

1-jadval

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sish sur'ati, %da<sup>1</sup>

Hududlar	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
<b>O'zbekiston</b>	<b>115,8</b>	<b>113,4</b>	<b>103,0</b>	<b>119,5</b>	<b>115,9</b>
Qoraqalpog'iston	116,2	118,5	106,1	121,5	115,7
Andijon	116,4	119,4	105,6	118,3	112,9
Buxoro	117,0	116,4	106,1	118,0	115,8
Jizzax	123,1	119,4	105,9	117,8	115,7
Qashqadaryo	118,9	117,0	106,7	114,4	114,1
Navoiy	127,9	117,4	105,8	118,3	114,2
Namangan	121,7	117,8	103,8	119,7	116,6
Samarqand	120,1	115,2	101,0	119,0	114,9
Surxondaryo	114,6	117,7	104,5	120,1	114,5
Sirdaryo	122,2	118,2	110,7	118,8	112,5
Toshkent vil.	126,7	113,2	102,0	117,8	113,2
Farg'ona	121,1	118,1	105,3	117,4	114,5
Xorazm	115,1	115,4	101,5	118,9	114,6
Toshkent sh.	119,3	117,3	108,2	123,4	118,2


Yuqoridagi ko'rsatkichlardan hududlarda umumiy xizmat ko'rsatish hajmining yillar davomida ortib kelganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Mamlakatda aholining tibbiy xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasiga hududlar kesimida tahlillar orqali obyektiv baho berish mumkin (1-rasm)

<sup>1</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.




## TARMOQ VA SOHALAR



**1-rasm. Sog'liqni saqlash xizmatlari hajmida hududlar ulushi, foizda<sup>3</sup>**

Yuqoridagi rasmdan ko'rishimiz mumkinki, sog'liqni saqlash borasida Toshkent shahri qolgan hududlarga nisbatan juda katta ulush bilan oldingi o'rinni egallagan. Tibbiyot sohasida respublikaning qariyb yarmi Toshkent shahriga to'g'ri kelishini kuzatishimiz mumkin bo'ladi.



**2-rasm. Sog'liqni saqlash xizmatlarining o'sish sur'ati, %da<sup>4</sup>**

Yuqoridagi rasmdan ko'rishimiz mumkinki, yillar davomida tibbiyot xizmatlarining o'sish dinamikasi turli o'sish ko'rsatkichlarini qayd etgan.

<sup>3</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>4</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2021- yilda ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari Oxirgi 2022-yilga kelib sezilarli darajada pasayish sur'atlarini kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

Ushbu ko'rsatkichlarga erishishda mamlakatimizda qabul qilinayotgan meyo'riy-huquqiy hujjatlarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish doirasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish, kasalliklarni profilaktika qilish va barvaqt aniqlash, malakali tibbiy kadrlarni tayyorlash, sohaga yangi boshqaruvni joriy qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga sog'liqni saqlash tizimini bugungi bosqichda isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari deb hisoblangan [15]:

mavjud kuch va vositalarni jalb qilgan holda, eng avvalo birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini har tomonlama mustahkamlash, tibbiy profilaktika va patronaj tizimining mutlaqo yangi tizimini joriy qilish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va aholi jamoat salomatligini ta'minlashning mahallalar va aholi xonadonlari darajasigacha qamrab oladigan yaxlit tizimini yaratish, bu borada avvalambor sog'lom turmush tarzi va jismoniy faollikni oshirishni tizimli tashkil etish hamda keng targ'ib qilish;

sohada yetuk va chuqur bilimga ega kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda raqobat muhitini yaratish, ilg'or xorijiy tajribaga asosan xodimlarni kasbiy rivojlantirishning samarali tizimini shakllantirish, tibbiyot ilm-fanini rivojlantirish orqali joylardagi tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish;

tibbiyot xodimlarining jamiyatdagi o'rni va maqomini kuchaytirish, xalqimiz o'rtasida ularga nisbatan hurmatni oshirish, ushbu kasb egalari uchun munosib mehnat sharoitini yaratish va daromadini ko'paytirish, shuningdek, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha aniq amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish;

sohaga zamonaviy menejmentini joriy etish, boshqaruv jarayonidagi ortiqcha va byurokratik tartib-tamoyillarni qisqartirish, sog'liqni saqlashni moliyalashtirish tizimining samaradorligini oshirish hamda raqamli tibbiyotni takomillashtirish.

Shu bilan birga, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'lamini kengaytirish, sohaga bosqichma-bosqich tibbiy sug'urta tizimini joriy etish, tibbiy xizmatlar bozorida zamonaviy raqobat muhitini yaratish, shu asosda aholining kafolatlangan va sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4890-son qarori [16] qabul qilindi. Unga ko'ra:

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida oilaviy shifokor, uning o'rtta tibbiyot xodimlaridan iborat terapiya va pediatriya yo'nalishlari bo'yicha yordamchilari, patronaj hamshiralari va doyadan tashkil topgan guruhlar tuziladi;

har bir tibbiyot muassasasi darajasida davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari paketi (keyingi o'rinlarda-kafolatlangan paket) ishlab chiqiladi;

kafolatlangan paket birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari va shifoxonalarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga taqdim etiladi. Bunda oilaviy shifokor har bir muassasa turi bo'yicha tibbiy xizmatlar hajmi va klinik protokollarga muvofiq tor soha shifokorlariga va zarur hollarda tuman, viloyat hamda respublika darajasidagi shifoxonalarga yo'llanmalar beradi. Respublika darajasidagi shifoxonalarga yo'llanmalar viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu tartibga rioya etilmagan hollarda, shuningdek, kafolatlangan paketga kiritilmagan tibbiy xizmatlar pullik asosda ko'rsatiladi;

aholining sog'lig'i bilan bog'liq ko'rsatkichlarini monitoring qilish, ularni tibbiyot muassasasiga biriktirish, kasallik tarixini yuritish, dori vositalari uchun resept yozish va kafolatlangan paketga muvofiq tibbiyot muassasalariga yo'naltirish yagona elektron platforma orqali amalga oshiriladi;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari tibbiyot xodimlarining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ishlab chiqilib, unga erishilganligi monitoring qilinadi hamda natijalariga qarab qo'shimcha rag'batlantirish to'lovlari to'lanadi;

kafolatlangan paket asosida aholining barcha qatlamlariga sifatli va to'liq tibbiy yordam ko'rsatilishini moliyalashtirishga qaratilgan davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy etilishi belgilab berilgan.

Shu bilan birga, sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish borasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4055-son qarorida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va uning hududiy organlarining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilangan. Unga ko'ra [17]:

aholiga, shu jumladan, davlat tomonidan kafolatlangan hajmlarda to'liq va o'z vaqtida tibbiy xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashda Vazirlikning organlari va tashkilotlari roli va mas'uliyatini oshirishga yo'naltirilgan fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, sog'liqni saqlash tizimida xususiy sektorning rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish;

demografik o'zgarishlar va sog'liqni saqlashni rivojlantirish istiqbollarini prognozlash, aholining salomatligi va kasallanishi holatini kompleks tahlil qilish;

millatning genofondini yaxshilash maqsadida sog'lom avlod tug'ilishi va tarbiyalanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, oilada tibbiy madaniyatni, umrning sifati va uzoq davom etishini oshirish, aholining sog'lig'ini muhofaza qilish va sanitariya-epidemiologik osoyishtalik sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish;

tibbiy yordamni xizmat ko'rsatilayotgan aholiga yaqinlashtirish, axborot texnologiyalarini, teletibbiyotni, davolashning klinik protokollarini keng joriy etish hamda yetakchi xorijiy va mahalliy mutaxassislarining tajribasini hududiy tibbiyot tashkilotlarining tibbiyot xodimlariga berish hisobiga aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi, tez, kechiktirib bo'lmaydigan va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamning qulayligi va tezkorligi darajasini oshirish, shuningdek, ixtisoslashgan tibbiyot markazlari tomonidan hududlarda ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar hajmini oshirish va sifatini yaxshilash;

dori vositalari muomalasini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlarini amalga oshirish, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llashga ruxsat berilgan asbob-uskunalarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish;

tibbiy ta'lim muassasalari, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim va sog'liqni saqlash mutaxassislarining malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash ustidan uslubiy rahbarlikni ta'minlash orqali tibbiy kadrlar tayyorlash sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

mahalliy tajribani va eng yaxshi jahon yutuqlarini uyg'unlashtirish asosida tibbiyot fanini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish va prognozashtirish, ilmiy tibbiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, fan, texnika yutuqlarini va ilg'or tajribani sog'liqni saqlash amaliyotiga joriy etish, tibbiy ta'lim va kadrlar malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

budjet mablag'larini noqonuniy sarflash va talon-taroj qilish holatlarining oldini olish, ogohlantirish va aniqlash.

Shuningdek, Sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirish va axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish, boshqaruv jarayonidagi ortiqcha tartib-tamoyillarni qisqartirish, aholiga xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish, tibbiyot xodimlarining ish samaradorligini ta'minlash, ushbu yo'nalishda qabul qilingan raqamli transformasiya qilish dasturlarini samarali amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori [18] qabul qilingan. Unda 2024-yil 1-yanvardan boshlab respublikadagi barcha tibbiyot va farmasevtika tashkilotlari, shu jumladan dorixonalar majburiy tartibda bosqichma-bosqich Yagona platformaga ulanishi belgilab berilgan.

Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimi va tashkilotlaridagi jarayonlarni optimallashtirish, rasionallashtirish, standartlashtirish va avtomatlashtirish,

sog'liqni saqlash sohasida axborot tizimlarini rivojlantirish uchun amalga oshiriladigan hamda xalqaro moliya tashkilotlari hisobiga moliyalashtiriladigan loyihalarning texnik-iqtisodiy parametrlari, konsepsiyalari hamda boshqa loyiha va loyihaoldi hujjatlarini ishlab chiqish, tibbiyot va farmasevtika sohasida axborot texnologiyasi va kommunikasiyalari siyosati va standartlarini joriy etish hamda «Elektron sog'liqni saqlash» axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish va kuzatib borish, shuningdek, ularning boshqa davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiyasini ta'minlash, sog'liqni saqlash tizimida biznes jarayon va IT-reinjiningini rivojlantirish va ushbu yo'nalishda xalqaro tajribani amaliyotga tatbiq etish, qo'yilgan vazifalarni ro'yobga chiqarish maqsadida investorlar, biznes hamkorlar va autsorsing xizmatlarini jalb qilish, tibbiyot sohasini raqamlashtirish ko'lamini kengaytirish maqsadida joriy etilayotgan axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni o'zida qamrab oluvchi sog'liqni saqlashning axborot tizimi yagona platformasi (keyingi o'rinlarda – Yagona platforma)ni joriy etish vazifalari belgilab berilgan.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni ijobiy natijalari tibbiyot tizimini yanada taraqqiy etishiga zamin yaratadi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Statistik tadqiqot o'tkazish uchun yetarli bo'lgan kuzatuvlar sonini, olingan natijalarning ishonchlik darajasini aniqlash uchun matematik tahlil usuli va unda qo'llaniladigan formulalardan foydalaniladi.

Tibbiyot va sanitariya statistikasida matematik tahlil usullari tanlab olingan majmua qo'llanilgan barcha tadqiqotlarda hamda kuzatuv natijalarini nisbiy va o'rtacha qiymatlarda ifodalash va statistik tahlil qilish talab etilganda va barcha klinik va laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan tadqiqotlarda (nisbatan kichik kuzatuvlar soniga ega bo'lganda) qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqoridagilarni inobatga olib, mamlakatimizda tibbiyot tizimida statistika ma'lumotlarni shakllantirish va ular tahlili borasida quyidagilar taklif sifatida ishlab chiqildi:

1. Sog'liqni saqlashni to'g'ri rejalashtirish, sanitariya-epidemiologiya va davolash-profilaktika muassasalarining ishini to'g'ri tashkil etish uchun ularning faoliyatini, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatning sifati va samarasini o'rganish, tibbiyot muassasalarining turi, soni, ularda ishlovchi xodimlarning soni, muqim shifoxonalardagi o'rinlar soni haqida ma'lumotlar yig'ish va ularni har tomonlama chuqur tahlil qilish;

2. Tajribada qo'llanilayotgan davolash va profilaktika ishlarida baho berish, ularni samarasini o'rganish;

3. Klinika va laboratoriya sharoitida ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalashtirish, ularni tashkil etish va o'tkazish, olingan natijalar aniqligini baholash, sog'lom va kasal odam organizmidagi har xil xodisa va jarayonlarning qonuniyatlarini



aniqlash, yangi davolash va profilaktika usullarining samaradorligiga baho berish;

4. Sog'liqni saqlash statistikasini aholi salomatligini o'rganish;

5. Aholining soni, tarkibi, tabiiy harakati (tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish);

6. Jismoniy rivojlanishi va aholi orasida har xil kasalliklarni tarqaganligi va ularning kechishi, o'rtacha umr kabi ko'rsatkichlar asosida statistik tahlil qilish zarur.

Umumiy kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarini yoki ayrim kasalliklar va o'lim sabablarini aholining ayrim guruhlari orasida ularning turmush tarzi, tashqi muhit, ijtimoiy – iqtisodiy, tarixiy shart sharoitlar bilan bog'lab o'rganish va o'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda aholi salomatligini yanada yaxshilash haqida aniq ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar *"2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"*gi PF-60 son Farmoni. <https://www.lex.uz>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabr *"Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi PF-6110-son Farmoni. <https://www.lex.uz>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi *"Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi PQ-4890 son qarori. <https://www.lex.uz>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabr *"O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi PQ-4055-son qarori. <https://www.lex.uz>

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-fevral *"Sog'liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi PQ-5000-son qarori. <https://www.lex.uz>

6. Abdulqosimov X.P. Sog'liqni saqlash sohasidagi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'llari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy konferensiya. – 2022. – B. 85-92.

7. Helen C. Lazenby, Katharine R. Levit and others. National health accounts: Lessons from the U.S. experience. Health Care Financing Review/Summer. – 1992/Volume 13. – № 4. – P. 76-82.

8. B.K. G'oyibnazarov, Y.Abduvalieva. Mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasini isloh etishning asosiy bosqichlari. *"Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlari"* mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Buxoro – 2013. – B 57-58.

9. Потемкина Н.В. Медицинская статистика – современный подход к непрерывному медицинскому образованию и цифровая трансформация. Статистика здравоохранения нового времени: Материалы Второго съезда медицинских статистиков Москвы. Москва. – 2020. – С. 75-77.

10. Собченко К.В. и др. Разработка специализированного модуля медицинской информационной системы для учета релапаротомий и анализа эффективности применения вакуумной терапии. Врач и информационные технологии. Специальный выпуск №1 Цифровое здравоохранение. Труды XXI Международного конгресса *«Информационные технологии в медицине»*. – 2020. – С. 28-34.

11. Гордеева А.В. Организация работы статистической службы с использованием гисз региона. Статистика здравоохранения нового времени: Материалы Второго съезда медицинских статистиков Москвы. – Москва. – 2020. – С. 23-26.

12. B.K. G'ayibnazarov, O.A. Qutliev, Y.R. Abduvalieva. Sog'liqni saqlash milliy hisoblarini shakllantirish maqsadida sog'liqni saqlash tizimini tadqiq qilish//Monografiya. Toshkent. – 2015. – 168 b.